

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

9-son (5-jild)

2025

SCIENCEPROBLEMS.UZ

**IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLARNING
DOLZARB MUAMMOLARI**

№ 9 (5) – 2025

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

TOSHKENT-2025

BOSH MUHARRIR:

Isanova Feruza Tulqinovna

TAHRIR HAY'ATI:

07.00.00- TARIX FANLARI:

Yuldashev Anvar Ergashevich – tarix fanlari doktori, siyosiy fanlar nomzodi, professor;

Mavlanov Uktam Maxmasabirovich – tarix fanlari doktori, professor;

Xazratkulov Abror – tarix fanlari doktori, dotsent;

Tursunov Ravshan Normuratovich – tarix fanlari doktori;

Xolikulov Axmadjon Boymahmatovich – tarix fanlari doktori;

Gabrielyan Sofya Ivanovna – tarix fanlari doktori, dotsent;

Saidov Sarvar Atabullo o'g'li – katta ilmiy xodim, Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, ilmiy tadqiqotlar bo'limi.

08.00.00- IQTISODIYOT FANLARI:

Karlibayeva Raya Xojabayevna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Nasirxodjayeva Dilafruz Sabitxanovna – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Ostonokulov Azamat Abdukarimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Arabov Nurali Uralovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor;

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Azizov Sherzod O'ktamovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

Xojayev Azizxon Saidaloxonovich – iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent

Xolov Aktam Xatamovich – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent;

Shadiyeva Dildora Xamidovna – iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent v.b.;

Shakarov Qulmat Ashirovich – iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.

09.00.00- FALSAFA FANLARI:

Hakimov Nazar Hakimovich – falsafa fanlari doktori, professor;

Yaxshilikov Jo'raboy – falsafa fanlari doktori, professor;

G'aybullayev Otabek Muhammadiyevich – falsafa fanlari doktori, professor;

Saidova Kamola Uskanbayevna – falsafa fanlari doktori;

Hoshimxonov Mo'min – falsafa fanlari doktori, dotsent;

O'roqova Oysuluv Jamoliddinovna – falsafa fanlari doktori, dotsent;

Nosirxodjayeva Gulnora Abdukaxxarovna – falsafa fanlari nomzodi, dotsent;

Turdiyev Bexruz Sobirovich – falsafa fanlari doktori (DSc), Professor.

10.00.00- FILOLOGIYA FANLARI:

Axmedov Oybek Saporbayevich – filologiya fanlari doktori, professor;

Ko'chimov Shuxrat Norqizilovich – filologiya fanlari doktori, dotsent;

Hasanov Shavkat Ahadovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Baxronova Dilrabo Keldiyorovna – filologiya fanlari doktori, professor;

Mirsanov G'aybullo Qulmurodovich – filologiya fanlari doktori, professor;

Salaxutdinova Musharraf Isamutdinovna – filologiya fanlari nomzodi, dotsent;

Kuchkarov Raxman Urmanovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent v/b;

Yunusov Mansur Abdullayevich – filologiya fanlari nomzodi;

Saidov Ulugbek Aripovich – filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

12.00.00- YURIDIK FANLAR:

Axmedshayeva Mavlyuda Axatovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Muxitdinova Firyuza Abdurashidovna – yuridik fanlar doktori, professor;

Esanova Zamira Normurotovna – yuridik fanlar doktori, professor, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan yurist;

Hamroqulov Bahodir Mamasharifovich – yuridik fanlar doktori, professor v.b.,;

Zulfiqorov Sherzod Xurramovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Xayitov Xushvaqt Saparbayevich – yuridik fanlar doktori, professor;

Asadov Shavkat G'aybullayevich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Ergashev Ikrom Abdurasulovich – yuridik fanlari doktori, professor;

Utemuratov Maxmut Ajimuratovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Saydullayev Shaxzod Alixanovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Hakimov Komil Baxtiyarovich – yuridik fanlar doktori, dotsent;

Yusupov Sardorbek Baxodirovich – yuridik fanlar doktori, professor;

Amirov Zafar Aktamovich – yuridik fanlar doktori (PhD);

Jo'rayev Sherzod Yuldashevich – yuridik fanlar nomzodi, dotsent;

Babadjanov Atabek Davronbekovich – yuridik fanlar nomzodi, professor;

Normatov Bekzod Akrom o'g'li — yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori;

Rahmatov Elyor Jumaboyevich — yuridik fanlar nomzodi;

13.00.00- PEDAGOGIKA FANLARI:

Xashimova Dildarxon Urinboyevna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Ibragimova Gulnora Xavazmatovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Zakirova Feruza Maxmudovna – pedagogika fanlari doktori;

Kayumova Nasiba Ashurovna – pedagogika fanlari doktori, professor;

Taylanova Shoxida Zayniyevna – pedagogika fanlari

doktori, dotsent;

Jumaniyozova Muhayyo Tojiyevna – pedagogika fanlari doktori, dotsent;

Ibraximov Sanjar Urunbayevich – pedagogika fanlari doktori;

Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD);

Bobomurotova Latofat Elmurodovna — pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

19.00.00- PSIXOLOGIYA FANLARI:

Karimova Vasila Mamanosirovna – psixologiya fanlari doktori, professor, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti;

Hayitov Oybek Eshboyevich – Jismoniy tarbiya va sport bo'yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti, psixologiya fanlari doktori, professor

Umarova Navbahor Shokirovna– psixologiya fanlari doktori, dotsent, Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti, Amaliy psixologiyasi kafedrasini mudiri;

Atabayeva Nargis Batirovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Shamshetova Anjim Karamaddinovna – psixologiya fanlari doktori, dotsent;

Qodirov Obid Safarovich – psixologiya fanlari doktori (PhD).

22.00.00- SOTSILOGIYA FANLARI:

Latipova Nodira Muxtarjanovna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri;

Seitov Azamat Po'latovich – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston milliy universiteti;

Sodiqova Shohida Marxaboyevna – sotsiologiya fanlari doktori, professor, O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi.

23.00.00- SIYOSIY FANLAR

Nazarov Nasriddin Ataqulovich –siyosiy fanlar doktori, falsafa fanlari doktori, professor, Toshkent arxitektura qurilish instituti;

Bo'tayev Usmonjon Xayrullayevich –siyosiy fanlar doktori, dotsent, O'zbekiston milliy universiteti kafedra mudiri.

OAK Ro'yxati

Mazkur jurnal Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2022-yil 30-noyabrdagi 327/5-son qarori bilan tarix, iqtisodiyot, falsafa, filologiya, yuridik va pedagogika fanlari bo'yicha ilmiy darajalar yuzasidan dissertatsiyalar asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari” elektron jurnali 2020-yil 6-avgust kuni 1368-sonli guvohnoma bilan davlat ro'yxatiga olingan.

Muassis: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” mas'uliyati cheklangan jamiyati

Tahririyat manzili:

100070. Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Kichik Beshyog'och ko'chasi, 70/10-uy. Elektron manzil:

scienceproblems.uz@gmail.com

Bog'lanish uchun telefon:

(99) 602-09-84 (telegram).

MUNDARIJA

07.00.00 – TARIX FANLARI

Ahmadjonov Ahrorbek Shuhratbek o'g'li

THE JEWS OF CENTRAL ASIA DURING THE RUSSIAN EMPIRE AND SOVIET ERA:
THE LEGAL, SOCIAL, AND CULTURAL LIFE OF THE BUKHARAN JEWS 9-13

Xurramov Xamid Bobokul o'g'li

AMIR TEMUR DAVRIDA TERMIZ VA CHAG'ONIYON QANDAY O'RIN TUTGAN? 14-18

Zikirova Maxprat Soliyevna

HARBIY SOHADA VATANPARVARLIKNI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI
VA ULARNING MILLIY XUSUSIYATLARI 19-25

08.00.00 – IQTISODIYOT FANLARI

Амбарцумян Анастас Алексеевич

СОСТОЯНИЕ И НЕКОТОРЫЕ ПРИОРИТЕТЫ РАЗВИТИЯ
ЭНЕРГЕТИКИ УЗБЕКИСТАНА 26-38

Rajabov Alibek Xushnudbekovich

ILMIY-TADQIQOT VA ISHLANMALARNI MINTAQAVIY IJTIMOIIY-IQTISODIY
RIVOJLANISH TENDENSIYALARIGA TA'SIRI 39-46

Xaytboyeva Nigora Bakmamatovna

OPPORTUNITIES FOR USING CUSTOMER-ORIENTED MARKETING STRATEGIES
IN TEXTILE ENTERPRISES 47-52

Shixiyev Raxim Muhammedovich

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA QISHLOQ XO'JALIGI TEXNIKALARINING
RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH
ISTIQBOLLARI 53-60

Pardayeva Ma'rifat Muzaffarovna

SURXONDARYO VILOYATI IQTISODIY RIVOJLANISHINING EKONOMETRIK
VA STATISTIK TAHLILI 61-66

09.00.00 – FALSAFA FANLARI

Navro'zova Gulchehra Nigmatovna

BAHOUDIN NAQSHBAND RUBOIYLARIDA VASL MASALASI 67-70

Yuldasheva Diloram Yuldashevna

O'ZBEKISTONDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING
DOLZARB MASALALARI 71-74

Mamadaliyev Mansurjon Mamajonovich

ZAMONAVIY JAMIYATDA FUTBOL FALSAFASINING AHAMIYATI 75-80

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

Ayimbetova Zamira

BADIIY ADABIYOTDA MOTIVLARNI TIZIMLASHTIRISH
VA TASNIFLASHNING NAZARIY ASOSLARI 81-87

<i>Kurbanbaev Djavod Aminbaevich</i> ANTROPOSENTRIZM PARADIGMASINING ASOSIY TUSHUNCHA VA TAMOIYILLARI	88-92
<i>Петросянц Эрнст</i> СЕЛЕБ-СЛОВА: ОККАЗИОНАЛИЗМЫ, РОЖДАЮЩИЕСЯ В МЕДИА	93-99
<i>Gulmuradova Sobira Rustam qizi</i> NAVOIY VA TILIMIZ	100-103
<i>Begmatova Sitora Bekzod qizi</i> ROMANTIZM OQIMINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING ASOSIY VAKILLARI	104-107

12.00.00 – YURIDIK FANLAR

<i>Firuz Muxitdinova</i> JAMIYAT BARQARORLIGI VA SHAXSIY BURCH: JAVOBGARLIK MADANIYATI HAQIDA TAHLILY MULOHAZA	108-113
<i>Qayumberdiyeva Dildora Doniyor qizi</i> NIZOLARNI HAL QILISHNING MUQOBIL USULI SIFATIDA MEDIATSIYA INSTITUTINING ROLI	114-123
<i>Narimanov Bekzod Abduvaliyevich</i> IJTIMOIY LOYIHALARNI AMALGA OSHIRISHDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIGINI YUKSALTIRISHNING INNOVATSION USULLARI	124-135
<i>Umarova Barno Akbutayevna</i> FUQAROLIK SUDLARIDA ATROF-TABIIY MUHITGA NISBATAN YETKAZILGAN ZARARLARNI UNDIRISH BILAN SUD AMALIYOTIDAGI MUAMMOLARNING AYRIM JIHATLARI	136-143
<i>Rasulov Baxtiyor Shavkatovich</i> ATMOSFERA HAVOSINI MUHOFAZA QILISH QONUNCHILIGI IJROSI USTIDAN PROKUROR NAZORATI	144-150
<i>Normatov Ermamat Toyir o'g'li</i> ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK	151-164
<i>Karamanova Benazir</i> YANGI O'ZBEKISTONDA YOSHLARNING QONUN IJODKORLIGIDA ISHTIROKI	165-169
<i>Ametova Nurjamal Kudaybergenovna</i> JINOYATLARNI OLDINI OLIISHDA QO'SHIMCHA JAZOLARNING PREVENTIV XUSUSIYATLARI	170-177
<i>Rajabov Sherzodbek Ravshanbekovich</i> NEUSTOYKA TO'LASH JAVOBGARLIK TURI SIFATIDA	178-181

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

<i>Madaminova Gulzoda Madaminovna</i> VOLEYBOL MASHG'ULOTLARI ORQALI MAKTAB O'QUVCHILARINING JISMONIY SIFAT KO'RSATKICHLARINI RIVOJLANTIRISH	182-185
--	---------

Rizayeva Gulnoza Xikmatuloyevna

AKADEMIK LITSEYLARDA "ATOM VA YADRO FIZIKASI BO'LIMI MAVZULARINI"
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VOSITASIDA O'QITISH METODIKASI. ("ELEMENTAR
ZARRALAR «BOG'I». POZITRONNING KASHF ETILISHI. ANTIZARRALAR. ELEMENTAR
ZARRALARNI XARAKTERLOVCHI KATTALIKLAR. ELEMENTAR ZARRALAR
FIZIKASIDAGI SAQLANISH QONUNLARI. ORALIQ BOZONLAR-KUCHSIZ O'ZARO
TA'SIRNING TASHUVCHILARI" MAVZUSI MISOLIDA) 186-197

Received: 15 August 2025
Accepted: 30 August 2025
Published: 15 September 2025

Article / Original Paper

INTERNATIONAL LAW AND NATIONAL LEGISLATION IN ENVIRONMENTAL PROTECTION

Normatov Ermamat

PhD Researcher of Tashkent State University of Law

Abstract. This article analyzes international legal norms related to environmental protection and their reflection in the national legal system. Specifically, it compares international agreements such as the UN Sustainable Development Goals, the Paris Climate Agreement, the Ramsar Convention, and the Kyoto Protocol with the legislation of Uzbekistan. Mechanisms for ensuring environmental safety are explored through key national legal acts — the Law "On Nature Protection," the Law "On Environmental Expertise," and other normative documents. The article examines prospects for improving environmental policy through the integration of international experience and national approaches.

Keywords: environment, environmental safety, national legislation, UN conventions, Paris Agreement, sustainable development, legal regulation.

ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISHDA XALQARO HUQUQ VA MILLIY QONUNCHILIK

Normatov Ermamat Toyir o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti
tayanch doktoranti

E-mail: normatovermamat@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi xalqaro huquqiy normalar va ularning milliy qonunchilik tizimidagi aks ettirilishi tahlil qilinadi. Xususan, BMTning barqaror rivojlanish maqsadlari, Parij iqlim kelishuvi, Ramsar va Kioto protokollari kabi xalqaro bitimlar O'zbekiston qonunchiligi bilan qiyosiy o'rganiladi. Milliy darajadagi asosiy qonun hujjatlari — "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonun, "Ekologik ekspertiza to'g'risida"gi Qonun va boshqa normativ hujjatlar orqali ekologik xavfsizlikni ta'minlash mexanizmlari yoritiladi. Maqolada xalqaro tajriba va milliy yondashuvlar uyg'unligi orqali ekologik siyosatning takomillashuv istiqbollari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, milliy qonunchilik, BMT konvensiyalari, Parij bitimi, barqaror rivojlanish, huquqiy tartibga solish.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V5I9Y2025N22>

Kirish. Bugungi globallashuv davrida insoniyat taraqqiyotining barcha sohalari – iqtisodiyotdan tortib siyosatgacha, texnologiyadan madaniyatgacha – atrof-muhit bilan chambarchas bog'liq holda rivojlanmoqda. Shu bilan birga, tabiatning izchil buzilishi, ekologik muvozanatning buzilishi va iqlim o'zgarishining kuchayishi insoniyat farovonligi va mavjudligi uchun bevosita tahdid solmoqda. Yadro chiqindilari, havoning ifloslanishi, yer resurslarining kamayishi, bioxilma-xillikning yo'qolishi, suv tanqisligi kabi ekologik inqiroz holatlari nafaqat alohida bir hududni, balki butun sayyorani xavf ostida qoldirmoqda. Shu boisdan bugungi kunda atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi global darajadagi dolzarb muammolardan biriga

aylangan. Ekologik xavfsizlikka erishish faqat milliy darajadagi chora-tadbirlar bilan cheklanib qolmaydi. Bu borada xalqaro huquqiy mexanizmlar, davlatlararo hamkorlik va transchegaraviy yondashuvlar muhim o‘rin tutadi. Chunki atrof-muhitga oid muammolar aksariyat hollarda chegaraviy doirada qolmaydi.[1] Masalan, atmosfera va suv havzalarining ifloslanishi, iqlim o‘zgarishi, o‘rmonlarning kesilishi kabi holatlar biror bir davlat chegarasidan chiqib, mintaqaviy yoki global ko‘lamda salbiy oqibatlariga olib keladi. Shu nuqtai nazardan, atrof-muhitni muhofaza qilish masalasi xalqaro huquqning muhim tarmoqlaridan biri sifatida shakllanib bormoqda.

Ekologik muammolar inson huquqlari bilan ham bevosita bog‘liqdir. Chunki qulay atrof-muhitda yashash huquqi insonning asosiy va ajralmas huquqlaridan biri hisoblanadi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Yevropa Ittifoqi, Afrika Ittifoqi va boshqa xalqaro tashkilotlar tomonidan qabul qilingan ko‘plab deklaratsiyalar va konvensiyalar bu bog‘liqlikni huquqiy jihatdan e‘tirof etgan. Xususan, 1972-yilgi Stokgolm deklaratsiyasida ilk bor “insonning sog‘lom va sifatli hayot kechirishi uchun atrof-muhit muhofazasi zarur”ligi ta’kidlangan.[2] 2022-yilda esa BMT Bosh Assambleyasi rezolyutsiyasi orqali toza, sog‘lom va barqaror atrof-muhitga ega bo‘lish inson huquqi sifatida e‘tirof etildi. Demak, atrof-muhitni muhofaza qilish nafaqat ekologik, balki ijtimoiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan ham muhim o‘rin tutmoqda.

Material va metodlar. Ushbu maqola doirasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi xalqaro-huquqiy normalar va O‘zbekiston Respublikasining milliy qonunchiligi o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish nazarda tutiladi. Xususan, xalqaro ekologik huquqning shakllanish bosqichlari, asosiy konvensiyalar va deklaratsiyalar, ekologik tashkilotlarning o‘rni va roli ko‘rib chiqiladi. Shu bilan birga, O‘zbekistonning Konstitutsiyasi va ekologik qonunlari, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi va boshqa tegishli idoralar faoliyati, hamda ularning xalqaro me‘yorlarga muvofiqligi o‘rganiladi. Mazkur tahlil orqali O‘zbekistonning ekologik xavfsizlikni ta‘minlash yo‘lidagi imkoniyatlari va mavjud muammolari aniqlanadi.

Maqolani yozishda quyidagi ilmiy uslublardan foydalaniladi:

- ◆ **Normativ-huquqiy tahlil** — xalqaro va milliy qonunchilik hujjatlari asosida amaldagi me‘yoriy asoslarni o‘rganish.
- ◆ **Taqqoslama-huquqiy tahlil** — O‘zbekiston tajribasini xorijiy davlatlar (masalan, Germaniya, AQSH, Fransiya) bilan solishtirish orqali ijobiy tajribalarni aniqlash.
- ◆ **Empirik yondashuv** — real voqealar, ekologik falokatlar va xalqaro amaliyotdagi holatlarni tahlil qilish.
- ◆ **Tarixiy yondashuv** — xalqaro ekologik huquqning shakllanishi va rivojlanish bosqichlarini ko‘rsatish orqali masalaning evolyutsion xususiyatlarini yoritish.

Asosiy qism

I BOB. Atrof-muhitni muhofaza qilishning xalqaro-huquqiy asoslari

1.1. Xalqaro ekologik huquq tushunchasi va shakllanish bosqichlari

Xalqaro ekologik huquq bugungi kunda xalqaro huquqning nisbatan yangiligi, ammo tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tarmoq davlatlar o‘rtasidagi ekologik munosabatlarni, transchegaraviy ifloslanish holatlarini, tabiiy resurslardan barqaror foydalanish qoidalarini hamda atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha davlatlarning o‘zaro majburiyatlarini huquqiy jihatdan tartibga soladi. Boshqacha aytganda, **xalqaro ekologik huquq** — bu davlatlararo darajada atrof-muhitni muhofaza qilishga oid me‘yor va

prinsiplarning yig'indisidir. Tarixan ekologik huquq xalqaro huquqning mustaqil sohasi sifatida XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab shakllana boshladi. Bunga birinchi navbatda sanoat inqilobi natijasida kuchaygan ifloslanish, biologik xilma-xillikning kamayishi va inson faoliyati natijasida yuzaga kelgan ekologik muammolarning transchegaraviy tus olishi sabab bo'ldi.

Ekologiya huquqining shakllanish bosqichlarini quyidagicha tasniflash mumkin:

Birinchi bosqich (1940–1970-yillar) — bu davrda ekologik muammolar endigina global darajaga chiqa boshlagan edi. Davlatlar asosan ikki tomonlama yoki mintaqaviy kelishuvlar doirasida ekologik muammolarni tartibga solishga urinardi. Bu bosqichda xalqaro huquqda ekologik terminologiya shakllanishi boshlandi.

Ikkinchi bosqich (1972-yil — Stokgolm konferensiyasi bilan boshlangan) — bu bosqichda ekologik huquqning mustaqil sohaga aylanishi kuzatildi. Stokgolm konferensiyasi va qabul qilingan deklaratsiya xalqaro ekologik huquq asoslarini yaratdi. Davlatlar ekologik masalalarni endi jahon darajasida muhokama qila boshladi.

Uchinchi bosqich (1992–hozirgi kungacha) — ekologik huquqning kuchayishi, institutsional asoslarning kengayishi va ekologik shartnomalarning ko'payishi davri. Rio-de-Janeyro sammiti, Parij kelishuvi va boshqa ko'plab hujjatlar bu davr mahsulidir.

Bugungi kunga kelib xalqaro ekologik huquq nafaqat tabiatni muhofaza qilish, balki barqaror rivojlanish, inson huquqlari, iqlim o'zgarishi va iqtisodiy siyosat kabi keng qamrovli sohalarni ham qamrab oladi. Bunda ekologik muammolar yondashuvi multidisiplinar bo'lib, huquqshunoslik, iqtisodiyot, ekologiya va siyosat fanlari kesishmasida namoyon bo'lmoqda.

1.2. Asosiy xalqaro hujjatlar

Xalqaro ekologik huquq nazariyasi amaliy asoslarsiz to'liq bo'lolmaydi. Bu soha asosan xalqaro deklaratsiyalar, konvensiyalar va protokollar orqali rivoj topgan. Quyida asosiy hujjatlar va ularning ahamiyati izchil tahlil qilinadi:

1972-yilgi Stokgolm konferensiyasi va Deklaratsiyasi

Bu hujjat xalqaro ekologik huquq tarixida burilish nuqtasi bo'ldi. Konferensiyada 113 ta davlat va ko'plab xalqaro tashkilotlar ishtirok etdi. Stokgolm deklaratsiyasida ilk bor insonning toza va sog'lom atrof-muhitda yashash huquqi e'tirof etildi.[3] 26 prinsiplik ushbu hujjat ekologik xavfsizlik, davlatlararo hamkorlik va transchegaraviy ifloslanishga qarshi kurashish kabi fundamental masalalarni o'z ichiga oldi. Shuningdek, Stokgolm konferensiyasi natijasida BMT tarkibida Atrof-muhit bo'yicha dastur — UNEP (United Nations Environment Programme) tashkil etildi, bu esa ekologik muammolarga doimiy e'tibor qaratilishiga zamin yaratdi.

1992-yilgi Rio-de-Janeyro sammiti (Yer sammiti)

Stokgolmdan 20 yil o'tib o'tkazilgan ushbu sammit ekologik huquqni rivojlantirishda navbatdagi muhim qadam bo'ldi. Uning asosiy hujjatlari:

Rio deklaratsiyasi — 27 prinsipdan iborat bo'lib, unda “ifloslantiruvchi to'laydi” prinsipi, ekologik xavf haqida oldindan xabardor qilish majburiyati, davlatlarning suvereniteti va ekologik mas'uliyati kabi tamoyillar mustahkamlangan.[4]

Agenda 21 — XXI asrda barqaror rivojlanishga erishish uchun amaliy reja bo'lib, unda ekologik ta'lim, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va fuqarolik jamiyati ishtirokiga alohida e'tibor berilgan.

BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi (UNFCCC) - 1992-yilgi BMT Konvensiyasi iqlim o'zgarishi masalasiga global yondashuvni shakllantirdi. Ushbu konvensiyaga 197 dan ortiq davlat a'zo bo'lgan. Uning asosiy vazifasi — issiqxona gazlarining

chiqindilarini kamaytirish, iqlimni muhofaza qilish bo'yicha davlatlarning harakatlarini muvofiqlashtirishdir.

Kioto protokoli (1997) - ushbu konvensiyaning aniq va majburiy miqdoriy ko'rsatkichlarini belgilagan hujjat bo'lib[5], rivojlangan davlatlarga issiqxona gazlarini qisqartirish majburiyatlarini yukladi. Bu tarixda ilk bor ekologik majburiyatlar uchun huquqiy javobgarlik belgilangan holat edi.

2015-yil *Parij kelishuvi*[6] — iqlim o'zgarishiga qarshi kurashda yangi bosqichni boshlab bergan hujjat hisoblanadi. Parij kelishuvida 1,5–2°C darajadan ortiq iqlim isishiga yo'l qo'ymaslik asosiy maqsad sifatida belgilangan. Avvalgi hujjatlardan farqli o'laroq, bu kelishuvda barcha davlatlar — rivojlangan va rivojlanayotgan — o'z ixtiyoriy majburiyatlarini belgilab, iqlim siyosatini yuritishmoqda. Parij kelishuvi shuningdek, barqaror rivojlanish, texnologik innovatsiyalar va moliyaviy mexanizmlar orqali ekologik muammolarni hal qilishga intiladi. Bu hujjat O'zbekiston ham imzolagan va ratifikatsiya qilgan muhim xalqaro hujjatlardan biridir.

1.3. Xalqaro ekologik tashkilotlar

Xalqaro ekologik huquqning samarali amalga oshirilishi ko'p jihatdan xalqaro ekologik tashkilotlarning faoliyatiga bog'liq. Bu tashkilotlar nafaqat ekologik muammolarni aniqlash, balki ularni hal etish bo'yicha ilmiy, siyosiy va amaliy choralarni ishlab chiqishda muhim rol o'ynaydi. Ular davlatlararo muvofiqlikni ta'minlaydi, statistik ma'lumotlarni yig'adi, ekologik loyihalarni moliyalashtiradi va fuqarolik jamiyatini faollashtiradi. Quyida eng asosiy xalqaro ekologik tashkilotlar va ularning funksiyalari ko'rib chiqiladi:

UNEP — BMTning Atrof-muhit bo'yicha dasturi

UNEP (United Nations Environment Programme) 1972-yilda Stokgolm konferensiyasi natijasida tashkil etilgan va BMT tizimida faoliyat yurituvchi asosiy ekologik tashkilotdir. Markazi Nayrobi (Kenya) shahrida joylashgan. UNEPning asosiy vazifasi — atrof-muhit bo'yicha xalqaro siyosatni shakllantirish, davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish va ekologik huquqiy me'yorlarni ishlab chiqishdan iborat. UNEP quyidagi sohalarda faoliyat yuritadi:

global ekologik monitoring va tahlil (masalan, Global Environmental Outlook hisobotlari); barqaror rivojlanishni targ'ib qilish;

ozon qatlamini himoya qilish, kimyoviy moddalarning nazorati, bioxilma-xillikni saqlash kabi mavzularda xalqaro bitimlarni muvofiqlashtirish.

Shuningdek, UNEP O'zbekiston bilan ham faol hamkorlik qiladi. Jumladan, iqlim o'zgarishi, cho'llanishga qarshi kurash va Orolbo'yi ekologiyasi bo'yicha qo'shma loyihalar amalga oshirilmoqda.

IUCN — Tabiatni muhofaza qilish bo'yicha xalqaro ittifoq.

IUCN (International Union for Conservation of Nature) 1948-yilda tashkil etilgan bo'lib, hukumatlar, nodavlat tashkilotlar, olimlar va ekspertlarni o'zida birlashtirgan eng yirik ekologik ittifoqlardan biridir. Uning faoliyati asosan:

hayvonot va o'simlik turlarining yo'q bo'lib ketish xavfini baholash;

qizil kitobni yuritish (IUCN Red List);

tabiiy hududlarni saqlab qolish va barqaror boshqaruv tizimlarini yaratish.

IUCN xalqaro ekologik siyosatga bevosita ta'sir ko'rsatadi va ko'plab ekologik bitimlarning ilmiy asosini ishlab chiqishda qatnashadi.

Greenpeace.

Greenpeace — ekologik faollik yoʻnalishida ishlovchi mustaqil, xalqaro nodavlat tashkilot boʻlib, 1971-yilda Kanadada tashkil etilgan. Uning asosiy faoliyati ekologik jinoyatlar va ifloslantiruvchi korporatsiyalar faoliyatiga qarshi jamoatchilik eʼtiborini jalb qilish, ekologik siyosatni faollashtirish va norozilik aksiyalarini tashkil etishga qaratilgan. Greenpeace quyidagi yoʻnalishlarda faoliyat yuritadi:

yadro chiqindilari va plastik ifloslanishga qarshi kurash;
dengizlar va oʻrmonlarni himoya qilish;
iqlim adolati va qayta tiklanuvchi energiyaga oʻtishni targʻib qilish.

WWF — Tabiatni muhofaza qilish jamgʻarmasi

WWF (World Wide Fund for Nature) — 1961-yilda tashkil etilgan boʻlib, dunyodagi eng taniqli ekologik nodavlat tashkilotlardan biridir. WWFning asosiy maqsadi — bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhit degradatsiyasini toʻxtatishdir. WWF faoliyati quyidagilarni qamrab oladi:

muqaddas ekologik hududlar va milliy bogʻlarni qoʻllab-quvvatlash;
barqaror turizm va qishloq xoʻjaligini targʻib qilish;
mahalliy hamjamiyatlar bilan ekologik loyihalarni amalga oshirish.

Bu kabi tashkilotlar davlatlar bilan ham, fuqarolik jamiyati bilan ham ishlaydi. Ular xalqaro ekologik huquqni amalda joriy etish, ekologik adolatni taʼminlash va jamoatchilikni faollashtirishda beqiyos rol oʻynaydi.

1.4. Davlatlararo hamkorlik va majburiyatlar

Atrof-muhitni muhofaza qilishda individual davlatlarning harakati yetarli emas. Ekologik muammolar koʻpincha transchegaraviy tusga ega boʻlganligi sababli, ularni hal qilishda davlatlararo hamkorlik va umumiy huquqiy majburiyatlar muhim oʻrin tutadi. Xalqaro ekologik huquq ana shu hamkorlikni meʼyorlashtiruvchi va muvofiqlashtiruvchi vosita sifatida xizmat qiladi.

Xalqaro majburiyatlarning shakllanishi — davlatlar ekologik sohadagi xalqaro shartnomalarni imzolash va ratifikatsiya qilish orqali oʻz zimmasiga maʼlum majburiyatlarni oladilar. Bu majburiyatlar quyidagi shakllarda boʻlishi mumkin:

absolyut majburiyatlar: masalan, biologik turlarni yoʻq qilish taqiqlari;
shartli majburiyatlar: iqlim oʻzgarishiga qarshi choralarni imkon qadar amalga oshirish;
axborot berish va hisobot taqdim etish majburiyati: BMT konvensiyalari doirasida har yili hisobot topshirish.

Bundan tashqari, davlatlar oʻzaro hamkorlik doirasida texnologik yordam koʻrsatadi, ilmiy-tadqiqot loyihalarida qatnashadi va ekologik xavf yuzaga kelganda bir-birini ogohlantirish tizimlarini joriy etadi.

Transchegaraviy ifloslanish va qoʻshni davlatlar bilan hamkorlik — transchegaraviy daryolar, havo oqimlari, choʻllanish va biologik migratsiyalar sababli ekologik xavf bir davlat chegarasida qolmaydi. Shuning uchun ham davlatlar qoʻshni mamlakatlar bilan ekologik bitimlar imzolaydi. Masalan: Orolboʻyi mintaqasida Oʻzbekiston, Qozogʻiston, Turkmaniston, Tojikiston va Qirgʻiziston suv resurslaridan barqaror foydalanish boʻyicha hamkorlik qiladi. Shuningdek, Kaspiy dengizi ekologiyasi boʻyicha bevosita hamkorlik bitimlari mavjud.

Ekologik diplomatiya va xalqaro aloqalar — ekologik muammolar bugungi kunda diplomatik muzokaralarning ajralmas qismiga aylangan. Iqlim sammitlari, barqaror rivojlanish

bo'yicha forumlar, BMTning COP konferensiyalari shular jumlasidandir. O'zbekiston ham bu jarayonlarda ishtirok etib, o'zining ekologik tashabbuslarini ilgari surmoqda. Misol uchun, 2022-yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev BMT Bosh Assambleyasida chiqish qilib, Orol fojiasi bo'yicha xalqaro harakatlar zarurligini ta'kidlagan va "Yashil makon" umummilliy loyihasini ilgari surgan. Bu esa ekologik diplomatiya orqali xalqaro majburiyatlarni o'zlashtirish va global hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

II BOB. O'zbekiston Respublikasining ekologik qonunchiligi va institutsional tizimi

2.1. Ekologik xavfsizlik va atrof-muhit muhofazasi milliy qonunchilikda

